

**O'ZBEKISTONDA YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUXIDA  
TARBIYALASHDA BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIKNI O'RNI**

*Davlatov Jamoliddin Qurbanboy o'g'li  
UzMU xarbiy tayyorgarlik o'quv markazi  
umumqushin tayyorgarlik sikli o'qituvchisi*

**Annotatsiya :** Tez suratlarda rivojlanib borayotgan yurtimizda yoshlarni vatanga bo'lган muhabbatini oshirish, ularni vatanparvarlik ruxida tarbiyalash uchun ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda ,ularni ma'nан yetuk jismonan baquvvat qilib tarbiyalash uchun birinchi navbatda boshlang'ich tayyorgarlikni o'rni yuqori .Bu maqolada yoshalarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashda boshlang'ich tayyorgarlikni o'rni tadqiq etilgan .

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, vatanparvarlik, boshlang'ich tayyorgarlik , yoshlar, vatan

Vatanparvarlik, O'zbekistonda xukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikni, jamiyatimizdagi bunyodkorlik milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini chuqr singdirish.Qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo'lган ishonchni kuchaytirish;milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma'nан yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O'zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekani haqidagi tushunchani hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash;yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish.

Bunda bizga yoshlarga birinchi navbatda boshlang'ich tayyorgarlik roli beqiyosdir.Yoshlarning chaqiriqgacha tayyorgarligiga umumiylahabarlik va nazorat O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligiga va Mudofaa Vazirining harbiy ta'lim boshqarmasiga yuklatilgan.Bu vazirliklar bilan birga yoshlarni shu soha bilan tanishtirladi.

Chaqiriqgacha harbiy tayyorgarlikning nazorati O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining Birlashgan shtabi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, xalq ta'limi vazirligi,O'zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasiYoshlar vatanimizning, millatimizning kelajagidir. Vatanimiz taqdirini ularga ishonib topshirar ekanmiz, avvalo ular zimmalariga yuklatilayotgan murakkab va mas'uliyatli vazifani butun mohiyati ila chuqr

anglashlari, unga o‘zlarini hissalarini qo‘sishlari lozim. Zero, Vatanni sevish, unga mehr-muhabbat qo‘yish bevosita har kimning shu yurt ravnaqi yo‘lida amalga oshirayotgan bonyodkorona ishlari bilan belgilanadi.

Milliy o‘zlikni anglashning rivojlanishida milliy vatanparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan, teran fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun vatan himoyasiga tayyorlanayotgan yoshlarimizning har biri yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi shart. Vatanparvarlik – yuksak insoniy fazilat hisoblanadi. Vatanparvarlik komillikning eng yorqin jihatlaridan biridir. O‘quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash barcha turdag‘i faoliyat ko‘rsatayotgan ta’lim muassasalarining asosiy o‘rin egallashi darkordir. Shu qatorida boshlang‘ich tayyorgarlikni o‘rni ham beqiyosdir O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida o‘quvchilarni xizmat qilishga ma’naviy – siyosiy, psixologik va jismoniy jihatdan tayyorlashning tashkili, mazmuni, shakllari va uslublarini tashkil qiladi. O‘quv yurtlarida o‘rganiladigan boshqa fanlar bilan bog‘langan holda talabalarni milliy vatanparvarlik ruhida o‘z Vatani himoyasiga qo‘lida qurol bilan chiqishga doim tayyor bo‘lishga tarbiyalash. Talabalarda pedagogik xislatlarni rivojlantirish, yangi jamiyatning faol, ongli quruvchilari, milliy mustaqillik g‘oyalariiga sadoqatli, mehnatkash, jasoratli va o‘z Vatani uchun hayotini beradigan insonlarni etishtirish. Talabalarni “Harbiy vatanparvarlik tarbiya” masalari bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlari bilan qurollantirish, ularda o‘rta o‘quv muassasalar, litseylar, kollejlardagi, maktablarda «Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik» o‘qituvchisiga xos bo‘lgan lavozimda o‘quv-tarbiyaviy ishning tashkil etilishi va o‘tkazilishi bo‘yicha ko‘nikma va qobiliyalarini shakllantirish.

Shunindek o‘rta maxsus va kasb – hunar ta’lim o‘quv yurtlaridagi „Yoshlarning chaqiriqga qadar boshlang‘ich tayyorgarligi” mashg‘ulotlari davomida va darsdan tashqari tadbirlar, shakl va metodlari, mudofaa va sport ishlarini tashkil qilish va o‘tkazish

“Vatanparvar”, “Salomatlik” normalari va “Shunqorlar” harbiy sport o‘yinini tashkil qilish va o‘tkazishni, o‘quv-dala mashg‘ulotlarini o‘tkazish, „Yoshlarning chaqiriqga qadar boshlang‘ich tayyorgarligi” fanining tugashiga bag‘ishlangan bayramlarni o‘tkazishni. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining nazariy va amaliy asoslarda O‘zbekiston Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Vatanparvarlik va mustaqil Vatan himoyasi haqida g‘oyalari, Oliy Majlis qonun va qarorlari, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Halq ta’limi vazirligi, Mudofaa vazirligining buyruq va ko‘rsatmalari, harbiy pedagogika va psixologiya, harbiy fanlar va boshqa qoida hamda me’yoriy hujjalalar o‘rin olgan.

Boshlang‘ich tayyorgarlik vazifalari mustaqil, o‘z yo‘lidan rivojlanayotgan Vatanimiz uchun, g‘urur, Qurolli Kuchlarga nisbatan muhabbat, jangovar va mehnat urf-odatlarimizga sadoqat, harbiy mehnatga hurmat hissini har taraflama rivojlantirish,

ozodlik va mustaqilligimizni, qo‘limizdagi qurol bilan muhofaza qilishga doimiy tayyorlikni shakllantirish, o‘z fuqarolik burchini ado etishdir. Vatanni himoya qilish uchun tayyorlikni ta’minlaydigan fikr, ishonchini, dunyo qarashni shakllantirish, unga bor kuchni, kerak bo‘lsa hayotini ham berish. Bo‘lajak jangchilarning ma’naviy-ruhiy, axloqiy-intizomiy, jangovar xislatlarini tarbiyalashni tarbiyalashdan iborat.

**Foydalangan adabiyotlar:**

1. Agapova I.Davydova M.Maktabda vatanparvarlik tarbiyasi.-M.: pres,2002.
2. Baturina G.I.Kuzina T.F.Zamonaviy ta’lim jarayonida xalq pedagogikasi :Pedagoglar va o’qituvchilar uchun qo’llanma ,”Maktab o’quvchilari ta’limi “jurnali kutubxonasi .-M.:Maktab matbuoti,2003yil.
3. Belya K.Yu .Vatanparvarlik tarbiyasi masalalari bo'yicha bollalar bilan ishlash tizimi .”Sentyabrdan sentyabrgacha “seriyasi .-M.:Respublika ,1998 yil.
4. Efremova G.Maktab o’quvchilarini vatanparvarlik tarbiyasi,”Maktab o’quvchilarini tarbiyalash .-2005.-No 8 .-B.17.
5. Lebedeva O.V.Vatanparvarlik tarbiyasi –sodiq yoki fuqarolik //Pedagogika .-2003 .-No 9.-b 77-83.